

**ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA TARIXIY
OBRAZLARNING TALMEHLANTIRILISHI**

To‘rayeva Mohinur Qo‘ziyevna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
m.q.turaeva@buxdu.uz

Annotatsiya. *Adabiyotshunoslikda she‘riy san‘atlarning o‘rni beqiyos. XX asr she‘riyati ijodkorlari ham o‘zlarining ijo namunalariida she‘riy san‘atlardan foydalanishni davom ettirdilar. Tarixiy shaxslar nomlarini she‘riyatda talmehlantirilishi hodisasi ham bundan mustasno emas. Xususan, Erkin Vohidov Halima Xudoyberdiyeva va Jamol Kamol ijodi o‘zining serqirraligi bilan ajralib turadi.*

Kalit so‘zlar: *talmeh, tarixiy shaxs, tarixiy voqelik, vatan, umid, ramz, milliylik.*

Аннотация. *Роль поэтического искусства в литературной критике несравнима. Создатели поэзии XX века также продолжали использовать поэтическое искусство в своих произведениях. Феномен аллегоризации имен исторических личностей в поэзии не является исключением. В частности, творчество Эркина Вохидова, Галимы Худойбердиевой и Джамола Камола отличается своим многообразием.*

Ключевые слова: *аллегория, историческая личность, историческая реальность, родина, надежда, символ, национальность.*


Abstract. *The role of poetic arts in literary criticism is incomparable. The creators of 20th century poetry also continued to use poetic arts in their works. The phenomenon of allegorization of the names of historical figures in poetry is no exception. In particular, the work of Erkin Vohidov, Halima Khudoyberdiyeva and Jamol Kamol is distinguished by its diversity.*

Keywords: *allegory, historical figure, historical reality, homeland, hope, symbol, nationality.*

Adabiyotshunoslikda, xususan o‘zbek lirikasida she‘riy san‘atlarning o‘rni beqiyos. She‘riy san‘atlar lirik namunalarning yanada ta‘sirli va jonli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Talmeh arabcha so‘z bo‘lib, “chaqmoq chaqilishi”, bir nazar tashlash” kabi ma‘nolarni bildiradi.

Talmeh-she‘riyatda tarixiy shaxslar, voqealar, afsonalar yoki turli adabiy qahramonlar nomlarini keltirish orqali fikrni kengroq ifodalash usulidir. Bu san‘at turi adabiy asarning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.



Odatda, talmeh san'atidan misol keltirish orqali ijodkor ko'p voqealarga ishora qila oladi. Mumtoz va zamonaviy o'zbek she'riyatida tarixiy shaxslar nomlari quyidagi yo'nalishlarda talmehlantiriladi.

1. Donishmandlik va adolat timsollari

She'rlarda davlat boshqaruvi va ilm-fanda o'ziga xos iz qoldirgan tarixiy shaxslar tilga olinadi:

Sulaymon – buyuk saltanat egasi va qushlar tilini bilish salohiyati timsoli.

Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) – kuch-qudrat, buyuklik, Jahongirlik timsoli bo'lish bilan birga o'tkinchi dunyo ramzidir.

2. Ilohiy va diniy-tarixiy shaxslar

Lirik asarlarda Payg'ambarlarga murojaat, Pirlar ishtirok etadigan sahnalardan keng o'rinlarda foydalanish tushuniladi.

3. Ishq-muhabbat afsonalari qahramonlari

Asarlarda, she'riy dostonlarda ishq-muhabbat qahramonlari bo'lmish Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Yusuf va Zulayho kabi obrazlar bularga misol bo'la oladi.

4. Milliy tarix va adabiyot siymolari

Muhtasham tariximizning buyuk siymolari, adabiyotning buyuk allomalari, ijodkorlarning talmeh bo'lib kelishi. Biz bugungi tadqiqotimizda tarixiy shaxslarning talmehlanishiga doir bir necha misollarni ko'rib chiqamiz. Zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan bo'lgan ijodkorlar Erkin Vohidov va Jamon Kamol kabi ijodkorlar shular jumlasidandir.

Talmeh san'atining yorqin namunalarini Erkin Vohidov ijodida ham kuzatiladi. O'zbek xalqining sevimli ijodkori, she'riyatimizning yorqin namoyondalaridan biri Erkin Vohidov ijodi nihoyatda serohang va o'ziga xosdir. Bu shoirning badiiy san'atlarni qo'llashidagi an'ana va novatorlikda namoyon bo'ladi. Xususan, talmeh san'atidan ham nihoyatda keng foydalanilgan. Shoir she'rlaridagi talmeh san'ati namunalarini ma'no jihatdan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Tarixiy shaxslar nomini keltirish orqali talmeh san'atini hosil qilish.

Chulg'anib sokin xayolga
Jim yotar sog'onalar.
Ne ko'rar **Mirzo Ulug'bek**
Besh asrlik xobida?
Bosh egib ustoz **Ulug'bek**
Qoshida turdim bu tong,
Charx urib ko'nglim xayolning
Otashin girdobida [1, 67].

Shoir o'zining "Samarqand" she'rida Samarqand tarixi, qadimiy obidalarini tilga olib, u yerda yotgan buyuk bobokalonlarimiz qabri, xususan, Mirzo Ulug'bek sog'onasi haqida so'z yuritadi. "Ilk muallimdir Samarqand ilmi aflok bobida" deb, astronomiya sohasida Ulug'bekning qo'shgan hissasi nechog'lik katta ekanligini ta'kidlaydi.

Navoiy sham kabi yonib,
Xazondek sarg'ayib so'lmish,

Varaqlar ham olibdur
Sohibi devoni rangidan.

Fuzuliy Karbalo dashtin
Quyundek kezdi **Qays** birlan,
Dili hech topmadi taskin

Davrning boda, bangidan [1, 91].

Ushbu parcha Erkin Vohidovning "Xazina" she'ridan keltirilgan. Shoir xazina deyish orqali turkiy adabiyot rivojiga hissa qo'shgan va uning dovrug'ini dunyoga sochgan buyuk bobokalonlarimizni nazarda tutadi.

Halima Xudoyberdiyeva she'rlaridagi talmehlarni mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Tarixiy shaxslar nomlarini keltirish. San'atning bu ko'rinishi mumtoz va zamonaviy she'riyatda nihoyatda sermahsul bo'lib, o'quvchidan o'sha shaxs ijodini yoxud hayotini keltirilgan misralardagi fikrga bog'laʼb, mohiyatini ochib berish talab etiladi:

Bihamdilloh, qolsam hamki sinib, qurib,

So'z aytarman xoki turob bo'lib turib.

Avlodimni qaytmaslikka ont ichdirib,

Amir Temur yo'llaridan yo'lovchiman [1,270]

Ushbu misralarda shoira kelajak avlodning ota-bobolari ruhidan madad olishini va buyuk sarkarda Amir Temur kabi jasur, shijoatli, haqqparvar bo'lishlarini istaydi. Talmeh shu maqsadda qo'llangan.

Bu dunyoning qoshi kerik boylari ko'p,

Unga miskin gadolarim sig'armukin?

Hamma qiyg'ir, o'zin urgan boylik, molga.

Mirtemir yo'q,

Yig'lash ham yo'q majnuntolga. [1,271]

Shoiraning "Sig'armukin" deb nomlangan ushbu she'rida o'zi yashayotgan davrdagi boylik, mol-dunyoga o'ch, tinimsiz bir-biridan o'zish payiga tushgan zamondoshlaridan norizolik kayfiyatini ifodalaydi. Ular orasida sof qalbli, "miskin gadolar", "Majnun, hushdan judolar" va "beholdjoni adolar" qanday sig'ishini o'ylab qayg'uradi. Halima

Xudoyberdiyevaning aynan shu yerda Mirtemir nomini keltirib o'tishi bejiz emas. Majnuntol so'zi orqali esa uning bevosita "Betobligimda" she'riga ishora qilib ketayotganligini ko'rishimiz mumkin. Go'yo Mirtemir vafotidan keyin bu dunyoda rostgo'y, halol va shuning uchun ham xokisor bir inson qolmaganligini aytib o'tadi.

Posbonlari, lashkarlari saf-saf, ming-ming,
Har biri tik *Mashrabga* teng, *Temurga* teng.
Tug'ning qayta yuksalib bormog'in ko'ring,
Yangi posbon, kuchlar yelka tutdi, denglar
O'tdi denglar, turkni oldga o'tdi, denglar [1,276]

Vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan yuqoridagi satrlarda *Mashrab* va *Temurga* ishora bor. Bunda *Mashrabning* isyonkorligi, *Temurning* matonati, dovyurakligi nazarda tutilgan.

Xalqim, garchand o'tkir tig'san,
Yolg'izlanma, qo'sh-qo'sh o'tgin.
Nasrulloday o'g'il tug'sang,
Jonim onam, bepusht o'tgin.
Aytgin, xalqim, orim, sha'nim,
Biz u yo'ldan bormaymiz, – de .
Qayta topsak... *Nodirani*
*Nasrullo*ga bermaymiz, – de. [1,279]

Ushbu misralar shoiraning "Mohlaroyim tug'ilajak..." she'ridan olingan bo'lib, *Nodirayi* davron fojiasiga bag'ishlangan. Bunda *Nasrulloning* qilgan qilmishlari sanab o'tilib, o'zbek onalariga murojaat qiladi; "*Nasrulloday* o'g'il tug'sang, jonim onam, bepusht o'tgin" – deb yozg'iradi shoira. *Nasrullo* Buxoro xoni bo'lib, u *Nodirani* farzandlar bilan birga so'ydirgan. She'rdan shafqatsiz xonning shu qilmishiga ishora qilinyapti.

Oллоh, bizlar karvon-karvon,
Mayli, bo'z yo, kimxob yopgin,
Bir *Navoiy* top bizlardan
Yoki bitta *Temur* topgin.
Oллоh, bizlar karvon-karvon,
Birimiz o't, birimiz ob.
Bir *Nodira* top bizlardan
Va yo bitta *Qurbonjon* top. [1,280]

Halima Xudoyberdiyeva qalamiga mansub "Armon" she'ridan olingan ushbu misralarda buyuk ajdodlarimiz nomi sanab o'tilib, shoiraning zamondoshlaridan han shunday buyuk insonlar chiqishini kutayotganligi aks etgan.

Qasamki qonimda *Mashrab* bor, mahzun,
Meni ko'kka tortar u ilohiy un.

Zikr, ishq, junundan ayro tushgan kun,
Qalandar xirqasin yechmoqqa qasam! [1,286]

E'tibor berilsa, shoira she'rlarida Mashrab siyosiga qayta-qayta murojaat qilinadi. Bu shoira xarakterining Mashrab shaxsiyatiga naqadar uyg'un ekanligini ko'rsatadi. Mashrab yolg'iz Olloh izmiga kiruvchi qalandarnamo shoir va lirik qahramon qonida uning qoni oqib turibdi.

Cho'lpon ketdi onasining yodida kuydim,
Usmon ketdi, *Xolambibi* "dod"ida kuydim,
Jismu jonim qirqim-qirqim, jodida kuydim,
Shuncha g'amni bir mushtipar dilimga berding [1,295].

Lirik qahramonning dardlari cheksiz, chunki u xalq onalari boshiga tushgan musibatlarni his etmoqda. Bu musibatlar XX asr boshlarida yurtining ma'rifatli bo'lishi yo'lida o'z jonidan voz kechgan Cho'lponu Usmonlarning onalari misolida keltiriladi. Nafaqat ular balki o'sha davrdagi insonlar hayoti, yashash tuirmushi borasida ham so'z yurutiladi va qurbon bo'gan buyuk ajdodlarimizning yodi mudom Vatani yodida bo'lishi ta'kidlanadi.

She'riyatimizning yana bir ijodkori shoir Jamol Kamol ijodida ham talmeh san'ati keng o'rin olgan. Jamol Kamol g'azallarini tahlil qilar ekanmiz, ularning ko'pchiligida *umid* obrazidan keng foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Shoirning quyidagi g'azalida esa, *umid* obrazi o'zining yaqqol ifodasini topgan. G'azal ramali musammani mahzuf (- V - - / - V - - / - V - - / - V -) vaznida yozilgan.

Olam ichra / kimga yer-u, / kimga osmon / dir *umid*,
Kimga olam / dek muqarrar, / kimga armon / dir *umid*.
Foilotun / foilotun / foilotun / foilun/

Jamol Kamol maqsadga yetishmoq uchun albatta *umid* qilishdan to'xtamaslik lozim deya ta'kidlaydi, shoirning fikricha *umid*, orzularning ro'yobi tomon qo'ligan qadamdir.

Kimki sahroni chaman istar *umid* daryosi bor,
Kim yonib ko'zlar falakni yulduzistondir *umid*.

Shoir keyingi baytda Mirzo Ulug'bekni yodga oladi. Ulug'bekning orzu-umidi farzandlarining baxt-u iqbolini ko'rish edi, o'gillari Amir Temur tomonidan barpo qilingan, Ulug'bek davrida gullab yashnagan saltanatning munosib vorislari bo'lishlarini xohlardi. Ammo Ulug'bek ana shu, u kelajagiga *umid* bilan qaragan o'gli tomonidan o'ldirildi. Ulug'bekning *umidlari* qilichga sachragan qonda qotib qolgandi:

O'yla, jon berdi Ulug'bek, qon tutar dushmanni lek,
Zanglagan egri qilichga sachragan qondir *umid*.

Jamol Kamol keyingi baytda Alisher Navoiyni tilga olib, uning tilga boʻlgan eʼtibori va muhabbatini koʻrsatib berishga harakat qiladi.

Shamsi anvardir tilim, deb elga keltirdi iymon,
Ul Navoiykim, basharga nur-u iymondir umid.

“Shamsi anvar” “nurli quyosh” demakdir. Navoiy tilni nur sochuvchi quyoshga mengzasa, Jamol Kamol Alisher Navoiyni “iymon nuri” deya ataydi.

Gʻazalning soʻnggi bayti shoirning faxr va iftixor tuygʻulari bilan toʻlib toshgan dil soʻzlaridir.

Oʻz eli-la iftixor etsa Jamolga ayb emas,
Oʻtsa gar ming yil jahondin, Oʻzbekistondir umid.

Jamol Kamolning mustaqillik davrida yozilgan gʻazallari shu davrda boshqa ijodkorlar tomonidan yaratilayotgan gʻazallardan oʻzining mavzular olamining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Xilma-xil mavzularda goʻzal ijod namunalarini yaratish Jamol Kamol ijodining oʻziga xos xususiyatlaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – T.: Oʻqituvchi, 2002. 285-54-b.
2. Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. 158-56-6.
3. Vohidov.E. Oʻzbekim . – T.: Sharq, 2005
4. Sirojiddin Sayyid. Qldirgʻochlarga ber ayvonlaringni. . – T.: Sharq, 2005.

